

O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI**Sherqulova Shahribonu**

Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani

25-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek leksikografiyasining taraqqiyot bosqichlari haqida ma’lumotlar yoritilgan. Shu bilan birgalikda, Sharq olimlari tomonidan yaratilgan lug‘atlar va filologik asarlar, qolaversa, bu lug‘atlarning o‘zbek tilshunoslari tomonidan chuqur o‘rganilib, ilmiy tavsif qilingani to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: lug‘atchilik, faol lug‘atlar, tarjima lug‘atlar, atama, milliy til, lug‘at boyligi.

Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir¹. Milliy tilimizning sofligini saqlash, ayniqsa, uning lug‘at boyligini oshirish, o‘zga til atamalarining o‘zbekcha muqobilini yaratish hamda ularning nutqimizda bir xil qo‘llanishini ta’minlash bugungi kunimizning muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bizga ma’lumki, tilimiz boy o‘tmishga ega. Ayniqsa, lug‘atchilik sohasida amalga oshirilgan ishlarning ko‘lami keng. Lug‘atchilik tarixiga nazar tashlasak, boshqa tillarning ham taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan qimmatli lug‘atlarimiz mavjud. Bunday lug‘atlar qatoriga Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Al-Zamahshariyning “Muqaddimat ul adab”, Muhammad Yoqub Chingiy tomonidan yozilgan “Kelurnoma” asari, Muhammad Rizoning “Muntaxab ul-lug‘at”, Mexdixonning “Maboni al-lug‘at va Sangloh” kabi asarlarini kiritishimiz mumkin. Ayniqsa, Alisher Navoiy “Muhokamatul –lug‘atayn” nomli asarida ona tilimizning leksik boyligini, uslubiy xususiyatlarini, boy va ixcham badiiy so‘z shakllari va vositalariga ega ekanligini asosli dalillar bilan ko‘rsatib beradi. Navoiy bu fikrlarini isbotlash maqsadida ona tili lug‘at boyligidagi 99 ta fe‘l va ot so‘z turkumiga xos so‘zlarning ma’nolarini forsiy til bilan qiyoslaydi. U turkiy tilning ko‘pgina jihatdan, ayniqsa, sinonimik, omonimik va boshqa tomondan ustun kelishini ko‘rsatib bergan va shu orqali o‘zbek leksikografiyasida yaratilgan sinonimlar, omonimlar hamda antonimlar lug‘atlarining yaratilishiga keng yo‘l ochib bergan.

Bugungi kunda leksikografiya sohasida qilinayotgan amaliy ishlar tahsinga loyiq. Bu borada olimlarimiz tomonidan kengqamrovli faoliyatlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, “Bolalar ensiklopediyasi”, “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi”, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” va qator tarjima lug‘atlar, terminologik lug‘atlarining yaratilishi fikrimizning yaqqol dalilidir. “Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati”ning tuzilishi esa o‘zbek tilini o‘rganishga bel bog‘lagan xorijliklar uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki, bu kabi lug‘atlarining yaratilishi dunyo hamjamiyatida ona tilimizning nufuzini oshishiga yaqindan yordam beradi.

Mutaxassislarining aytishicha, hozirda Avstraliyada va AQSHdagina o‘zbek tilida o‘qitiladigan maktablar bor ekan². O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olim va tadqiqotchilar soni ham yil sayin ko‘paymoqda. “Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati” kabi lug‘atlar esa o‘zbek tilini o‘rganishdagi bir qator qiyinchiliklarning oldini oladi.

Bizga ma’lumki, hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya muassasalarida o‘zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillari faol qo‘llaniladi. Yurtimizdagi ta’lim maskanlarida ingliz, rus, nemis, fransuz, ispan, italyan, arab, fors, turk, xitoy, yapon, koreys tillari chuqur o‘qitilayotgani hammamizga ma’lum. Bu borada esa tarjima lug‘atlarining o‘rni beqiyosdir. Ular boshqa tillarni o‘rganishda, o‘z tilining imkoniyatlarini to‘laroq egallashda, savodxonlikni oshirishda, nutq madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjima lug‘atlarida bir tilning lug‘aviy birligiga boshqa tilning ma’no jihatdan to‘g‘ri keladigan ekvivalenti beriladi, o‘zga tilning lug‘aviy birligi tarjima etiladi, tavsiflanadi. Tarjima

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2019 yildagi PF- 5850- son

²Xudoyberdiyev A. N’yu-Yorkdagi o‘zbek maktabi. T.,2021. – B.3.

<https://conferencea.org>

lugʻatlariga namuna sifatida quyidagi lugʻatlarni koʻrsatish mumkin: J.B.Bronov, X.R.Rahmonberdiyev, X.S. Barnoxoʻjayeva, Ye.A.Anisimovlarning muallifligi ostida chiqqan “Inglizcha-oʻzbekcha soʻzlik”, T.Aliqulov, D.Bozorovalarning “Fransuzcha-oʻzbekcha soʻzlik”.

Oʻzbek leksikografiyasida tarjima lugʻatlari ham eng koʻp foydalaniladigan faol lugʻatlar qatoriga kiradi. Ayniqsa, ruscha-oʻzbekcha lugʻatlarning qoʻllanish oʻrni beqiyosdir. Oʻzbek tilining qoʻllanish doirasini kengaytirish, turli millatlarga mansub vatandoshlarimizning davlat tilini oʻrganishlarida tarjima lugʻatlar sezilarni ahamiyat kasb etadi.

Demak, bugungi kunimizda tilimizning ravnaqi uchun yangidan yangi lugʻatlarni tuzish va amaliyotga tatbiq etish bu soha vakillarining birlamchi vazifalaridan biriga aylanib ulgurdi. Qolaversa, oʻzbek tilining qoʻllanish doirasini kengaytirish, yosh avlod vakillarida oʻz fikrlarini ona tilimizda erkin va jozibali bayon etish koʻnikmalarini shakllantirish siz-u bizning muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2019 yildagi PF- 5850- son
2. A.Hojiyev, A.Nurmonov, S. Zaynobiddinov va boshqalar. Hozirgi oʻzbek tili faol soʻzlarining izohli lugʻati. –T.: “Sharq”, 2001.-336 b.
3. Xudoyberdiyev A. N’yu-Yorkdagi oʻzbek maktabi. T.,2021. – 176 b.
4. Xojiev A. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.
5. Xojiev A. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати.- Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик. – Москва: Рус тили, 1981.
7. Ўзбек тилининг имло луғати. – Тошкент: Фан, 1976.